| <b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich</b>                                                                                                    |      |
| Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....                                                                                          | 1166 |
| <b>Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich</b>                                                                        |      |
| Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari .....                                                                          | 1170 |
| <b>Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna</b>                                                                                                                                             |      |
| Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish .....                                                                        | 1177 |
| <b>Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li</b>                                                                   |      |
| Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish .....                                                                                              | 1182 |
| <b>Babaev Jo'rabek</b>                                                                                                                                                            |      |
| Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati .....                                                                                      | 1190 |
| <b>Asqarova Lobarxon Usmanjanovna</b>                                                                                                                                             |      |
| O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini .....                                           | 1194 |
| <b>Turopov Maqsudjon</b>                                                                                                                                                          |      |
| Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati .....                                                                                 | 1199 |
| <b>Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li</b>                                                                                                                                    |      |
| Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari .....                                                                                                       | 1204 |
| <b>Annayev Abdurasul Abdurashidovich</b>                                                                                                                                          |      |
| Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства .....                                                                                                                   | 1211 |
| <b>Камилова Наргиза Абдукажоровна</b>                                                                                                                                             |      |
| “Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati .....                                                                                                           | 1216 |
| <b>Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li</b>                                                                                                                                        |      |
| Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....                                                            | 1220 |
| <b>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</b>                                                                                                                                          |      |
| O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                                  | 1223 |
| <b>Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li</b>                                                                                                                                          |      |
| Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....                                                                  | 1229 |
| <b>Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich</b>                                                                                                                                          |      |



|                                                                                                                               |      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi .....                                           | 1235 |
| <b>Adilova Yulduz Shavkatovna</b>                                                                                             |      |
| Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish .....                                          | 1239 |
| <b>Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li</b>                                                                                          |      |
| Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish .....                                  | 1245 |
| <b>Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi</b>                                                                                    |      |
| Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish<br>iqtisodiy samaradorligi .....            | 1250 |
| <b>Ismailov Nurulla Tuychibayevich</b>                                                                                        |      |
| O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy<br>tahlil va islohotlar zarurati ..... | 1256 |
| <b>Raximov Ilyos Ikramovich</b>                                                                                               |      |



# O'ZBEKISTONDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISLOHOTLAR ZARURATI

**Raximov Ilyos Ikramovich**

Toshkent arxitektura qurilish universiteti tadqiqotchisi  
ORCID: 0009-0000-7334-0821

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmlari, texnologik yangilanish darajasi va eksport salohiyati baholangan. Sohadagi o'sish jarayonlari iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan hali to'liq yetarli emasligi aniqlangan. Maqolada sohaning asosiy muammolari – moliyaviy yetishmovchilik, texnologik eskirganlik, kadrlar salohiyati pastligi va eksport mexanizmlarining samarasizligi qayd etilgan. Korxonalarning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslarni taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** qurilish materiallari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, korxona, ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik yangilanish, eksport salohiyati, investitsiya, klaster, raqobatbardoshlik, moliyaviy boshqaruv.

**Abstract:** This article provides a systematic analysis of the organizational and economic mechanisms of enterprises producing building materials. The development of the field of production of building materials, production volumes, the level of technological renewal and export potential were evaluated. Growth processes in the industry have yet to be fully sufficient in terms of economic efficiency and competitiveness. The article noted the main problems of the industry – financial failure, technological obsolescence, low personnel potential and inefficiency of export mechanisms. Scientifically based proposals and recommendations have been developed aimed at improving the activities of enterprises.

**Key words:** building materials, organizational and economic mechanism, enterprise, production efficiency, technological renewal, export potential, investment, cluster, competitiveness, financial management.

**Аннотация:** В данной статье проведен системный анализ организационно-экономических механизмов предприятий по производству строительных материалов. Оценивается развитие отрасли производства строительных материалов, объемы производства, уровень технологического обновления и экспортный потенциал. Установлено, что процессы роста в отрасли еще не полностью адекватны с точки зрения экономической эффективности и конкурентоспособности. В статье отмечены основные проблемы отрасли – финансовый дефицит, технологический износ, низкий кадровый потенциал и неэффективность экспортных механизмов. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на совершенствование деятельности предприятий.

**Ключевые слова:** строительные материалы, организационно-экономический механизм, предприятие, эффективность производства, технологическая модернизация, экспортный потенциал, инвестиции, кластер, конкурентоспособность, финансовый менеджмент.

## KIRISH

Qurilish sanoati har qanday rivojlanayotgan mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush sharoitini yaxshilashda ham muhim o'rin tutadi. Qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalar esa, bu sohaning poydevori sifatida, qurilish tarmoqlarini barqaror ravishda mahsulot bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Ularning samarali faoliyati butun qurilish sohasining texnik va iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



O'zbekistonda so'nggi yillarda qurilish sohasidagi yuqori sur'atdagi o'sish, davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik infratuzilmaviy loyihalar, aholi soni ortishi va shaharsozlikning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda qurilish materiallariga bo'lgan talab keskin oshdi. Shu bilan bir qatorda, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, importga bog'liqlikni kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Shu bilan birga, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida samaradorlikni yanada oshirish uchun katta salohiyat mavjud bo'lib, mavjud resurslardan to'liq va oqilona foydalanish ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Hozirgi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bir qator korxonalarda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va strategik boshqaruv yondashuvlarini kuchaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish yechimlarini keng joriy etish, moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirish hamda xom ashyo, logistika, marketing va malakali kadrlar bilan ta'minlash tizimlarini yanada rivojlantirish – sohaning barqaror o'sishini ta'minlash uchun muhim yo'nalishlardandir.

Bundan tashqari, erkin va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar bozor mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilib, korxonalar o'rtasida samarali hamkorlik va innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirmoqda.

Ushbu ijobiy yondashuvlar asosida qurilish materiallari sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, ichki va tashqi bozorlarga sifatli mahsulot yetkazib berish salohiyatini kengaytirish imkoniyatlari yanada kuchayadi. Bunday sharoitda, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning samarali ishlashini ta'minlash uchun, avvalo, ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, bozor munosabatlariga mos ravishda yangilash zarur. Bunda har bir korxonaning ichki rezervlaridan oqilona foydalanish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va strategik boshqaruvni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning ahamiyati faqatgina qurilish obyektlarini moddiy jihatdan ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi, balki qator tarmoqlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi sababli, butun iqtisodiy tizimning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, sement, beton, g'isht, shifer, g'ishtblok, qurilish yopig'i mahsulotlari va boshqa turdagi qurilish materiallarini mahalliy ishlab chiqarish orqali importga bo'lgan ehtiyojni qisqartirish, milliy valyuta barqarorligi va tashqi savdo balansini muvozanatlashtirishga erishish mumkin.

Tarmoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy mineral xom ashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish va qurilish materiallarini eksport qilish hajmlarini oshirish maqsadida: [1] geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasi hajmlarini ohaktosh bo'yicha -13,1 mln tonnaga, gips toshi bo'yicha -1,8 mln tonnaga, loysimon komponentlar, g'isht xom ashyosi, kvarts qumi bo'yicha -1 mln tonnaga, ko'chgan tog' jinslari (bazalt) bo'yicha -0,1 mln tonnaga, tosh-shag'al materiallar bo'yicha -5,6 mln metr kubga; ishlab chiqarish hajmlarini oboylar bo'yicha -47 barobardan ortiq hajmga, yig'ilgan parket panellari va plitalari bo'yicha -19 barobarga, yog'och qirindili plitalar hamda yog'och va boshqa yog'ochbop materiallardan tayyorlangan plitalar bo'yicha -15 barobarga, gazbeton bloklari bo'yicha -7 barobarga, lak-bo'yoq materiallari hamda energiya va issiqlikni tejovchi float-texnologiya asosida ishlab chiqarilgan arxitektura-qurilish oynasi bo'yicha -4 barobarga, bazaltdan tayyorlanadigan kompozit armatura bo'yicha -3 barobarga va sement bo'yicha -2 barobarga oshirish.

O'zbekistonda so'nggi besh yil ichida qurilish sohasi jadal rivojlanmoqda. Yangi turar-joy massivlari, yirik sanoat klasterlari, infratuzilma obyektlari, ta'lim va tibbiyot muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan davlat dasturlari qurilish materiallariga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sement va beton mahsulotlariga ichki bozordagi talab yil sayin o'sib bormoqda. Bu holat, o'z navbatida, mahalliy ishlab chiqaruvchilar oldiga xom ashyodan oqilona foydalanish, yuqori sifat standartlariga mos mahsulot tayyorlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish kabi vazifalarni qo'yadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, ya'ni boshqaruv, moliyalashtirish, resurslardan foydalanish, investitsiya jalb qilish, texnologik yangilanish va eksportga chiqish strategiyalarini qayta shakllantirish – bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifasidir. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy yechimlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojiga turtki bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish masalasi so'nggi yillarda milliy va xorijiy iqtisodchilar tadqiqotlarida alohida o'rin tuta boshladi. Bir qator olimlar ushbu masalani makroiqtisodiy jarayonlar, resurslardan foydalanish samaradorligi, bozor mexanizmlarining ishlash prinsiplari va investitsiya muhitini tahlil qilish orqali o'rganganlar. Ammo ushbu tadqiqotlarning aksariyatida



sohaga xos muammolar chuqur yoritilmagan, mahalliy real holatlar bilan uyg'unlashtirilmagan holda nazariy qarashlar bilan cheklangan.

A. Qurbonov o'zining «Iqtisodiy islohotlar sharoitida korxona faoliyatini tashkil etish» nomli monografiyasida iqtisodiyotdagi tarmoqlararo bog'liqliklar va klaster shaklidagi uyushmalarning samaradorligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, sanoat korxonalarini, jumladan, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi sub'ektlarni klasterlar asosida tashkil qilish ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.[2] Biroq muallif klasterlarning ichki boshqaruv mexanizmlari, texnologik modernizatsiya va mehnat unumdorligiga ta'sirini yetarlicha tahlil qilmagan.

Sh.Yunusxo'jaev o'zining «Biznes rejalashtirish va strategik boshqaruv» nomli darsligida korxonalarda strategik maqsadlarga erishishda biznes-rejalarning o'rni va ahamiyatini atroflicha tahlil qilgan. U qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda strategik rejalashtirish, SWOT-tahlil, resurslarni to'g'ri taqsimlash kabi vositalarni joriy etish muhimligini ta'kidlaydi.[3] Ammo tadqiqotda mahalliy shart-sharoitlarda ushbu vositalarning qay darajada ishlashi, amaliy samarasi qanday bo'lishi to'g'risida yetarlicha misollar keltirilmagan.

M.Abdurasulov o'zining «Qurilish materiallari bozorida raqobat muhiti» mavzusidagi maqolasida qurilish bozorida raqobat mexanizmlari, narx shakllanishi, mahsulot turlari bo'yicha tartibsizlik va standartlashtirish muammolariga to'xtalib o'tadi.[4] Uning fikriga ko'ra, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun asosiy to'siqlardan biri – bu tashqi bozorlarga chiqishda logistika, sifat va sertifikatlash muammolaridir. Shu bilan birga, tadqiqotda davlat qo'llab-quvvati, subsidiyalar, soliq imtiyozlarining aniq ta'siri kamroq o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan T. Yordanov o'zining qurilish materiallari ishlab chiqarishda xom ashyoning mahalliy manbalariga tayangan holda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish strategiyalarini tavsiya qiladi. Uning 2020-yildagi «Construction Materials and Industrial Policy» nomli ishida aytilishicha, mahalliy resurslarga asoslangan ishlab chiqarish biznes modellari kichik va o'rta korxonalar uchun samarali yechim bo'ladi.[5] Biroq bu yondashuvda ham innovatsion yechimlarning roli kam yoritilgan.

H.Abdurasulov o'zining «Ishlab chiqarishda innovatsiya va modernizatsiya jarayonlari» nomli tadqiqotida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangilanishning sekin sur'atlarda kechayotganini tanqid qiladi. Uning fikriga ko'ra, ushbu sohaga tegishli korxonalarda ishlab chiqarish uskunalarining 40–50 foizi moral va jismoniy jihatdan eskirgan bo'lib, bu ularning mahsulot sifatini va energiya samaradorligini pasaytiradi.[6] Olim bu muammoni hal qilish uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, texnologik lizing mexanizmlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Biroq, uning tadqiqotida xususiy sektorning o'z tashabbusi bilan modernizatsiyaga yo'naltirgan investitsiya faoliyati yetarlicha yoritilmagan.

Shu bilan birga, Q.Sattorovning «Korxonalarda resurslardan samarali foydalanish va xo'jalik mexanizmlari» nomli ilmiy maqolasida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda resurs tejamkorlik va chiqindilarni qayta ishlashning iqtisodiy afzalliklari tahlil qilingan.[7] U, ayniqsa, sement va beton ishlab chiqarishda chiqindilarni ikkinchi marotaba qayta ishlab, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot olish imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan. Ammo muallifning ishida mazkur tizimni joriy etishdagi tashkiliy to'siqlar, xususan, normativ-huquqiy muammolar yetarli darajada yoritilmagan.

Xorijiy olimlardan L.Richardson o'zining «Emerging Economies and Building Materials Industry» nomli tadqiqotida rivojlanayotgan davlatlarda qurilish materiallari sanoatida davlat siyosatining tarkibiy ta'siriga alohida e'tibor qaratadi. U davlat-hususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari, eksportni rag'batlantirish va tashqi investitsiyani jalb qilish kabi yondashuvlarning iqtisodiy samaradorligini o'rgangan.[8] Uning fikriga ko'ra, bunday davlat dasturlari doimiy qo'llab-quvvatlansa, korxonalarning ichki resurslarini to'liq safarbar etish va texnologik yangilanishga keng yo'l ochiladi. O'zbekiston sharoitida esa bu modellarni joriy etishda institutsional mustahkamlik va huquqiy kafolatlar hali yetarlicha emasligi qayd etilgan.

R.Tojiboev «O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishda qurilish materiallari ishlab chiqarishning o'rni» mavzusidagi maqolasida ushbu soha nafaqat qurilish sohasi uchun, balki iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan tarmog'i sifatida ham strategik ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.[9] Unga ko'ra, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori texnologiyalar asosida qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarish orqali eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Biroq tadqiqotda iqtisodiy tahlil ko'proq umumiy tavsiyalar bilan cheklangan, hisob-kitob va pragmatik yechimlar kamroq keltirilgan.

Shu jihatdan, mavjud adabiyotlardagi tahlillar muayyan nazariy asoslarni belgilab bersa-da, mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini real iqtisodiy muhitda amaliy tahlil qilish, ularni kompleks yondashuv asosida baholash, muammo va yechimlarni aniqlash bo'yicha to'liq qamrovli ilmiy ishlar yetarli emas. Bu esa ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini yanada kuchaytiradi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish bo'yicha qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Qurilish materiallari sanoatidagi muvaffaqiyatlar barcha qurilish loyihalarining iqtisodiy jihatdan samaradorligini belgilaydi. Agar qurilish materiallari mahalliy va arzon manbalardan, yuqori sifatli holda ta'minlansa, umumiy qurilish xarajatlari kamayadi, loyihalarni amalga oshirish muddati qisqaradi va pudrat tashkilotlarining ish samaradorligi oshadi.

O'zbekistonda 2020–2024-yillar davomida qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida muayyan o'sish kuzatildi. Ammo bu o'sish barqaror va tizimli bo'lib, sohaning ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanilganini anglatmaydi. Quyidagi jadvallar orqali sohadagi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi (mln so'mda)<sup>1</sup>.

| Yillar | Ishlab chiqarish hajmi | O'sish sur'ati |
|--------|------------------------|----------------|
| 2020   | 7,800,000              | -              |
| 2021   | 8,650,000              | +10,9          |
| 2022   | 9,500,000              | +9,8           |
| 2023   | 10,400,000             | +9,5           |
| 2024   | 11,200,000             | +7,7           |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar oralig'ida ishlab chiqarish hajmi yil sayin o'sib borgan. Ammo o'sish sur'ati 2021 yilda yuqori bo'lgan bo'lsa-da, keyingi yillarda sekinlashgan. Bu holat, ehtimol, korxonalardagi texnologik yangilanishning sustligi va resurslardan samarali foydalanilmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (1-rasm).




1-rasm. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni<sup>2</sup>.

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari.

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari.




Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, korxonalar sonining ortishi sohadagi raqobat muhitini kuchaytirishi mumkin. Ammo yangi korxonalarning ko'pchiligi kichik va o'rta biznes sub'ektlari bo'lib, ularning texnologik jihozlanishi va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda texnologik yangilanish darajasi (%)<sup>3</sup>.

Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, texnologik yangilanish darajasi sekin sur'atda o'smoqda. 2020-yilda uskunalarining 25% yangilangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 35% ga yetgan. Bu esa korxonalarda modernizatsiya jarayonlari sust kechayotganini ko'rsatadi. Sabablardan biri sifatida moliyaviy resurslarning yetarli emasligi va investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolarni ko'rsatish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Qurilish materiallari eksporti (mln AQSh dollari).

Rasmda keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, eksport hajmi yil sayin oshmoqda. Ammo eksportning umumiy ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi hali ham past. Bu holat, ehtimol, mahsulot sifatining xalqaro standartlarga mos kelmasligi, logistika muammolari va tashqi bozorlarda marketing strategiyalarining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Olib borilgna tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida muayyan o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, ushbu o'sish barqaror va tizimli emas. Texnologik yangilanishning sustligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, eksport salohiyatining to'liq ro'yobga chiqarilmagani kabi muammolar sohaning rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Shu sababli, sohadagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish, investitsiya muhitini yaxshilash va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish zarur.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi so'nggi besh yil ichida iqtisodiyotning eng faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Davlatning sanoatni mahalliyashtirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va qurilish infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan siyosati doirasida bu sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Korxonalar soni ortib, ishlab chiqarish hajmlari o'smoqda, eksport salohiyati kengaymoqda.

Tahlil etilgan ma'lumotlar va ilmiy manbalar asosida qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi muhim xulosalar chiqarish mumkin:

Sanoatning tarkibiy imkoniyatlarini modernizatsiya orqali kuchaytirish lozim. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologiyalarning yangilanishi sekin kechayotgan bo'lsa-da, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy uskunalar bilan yangilash orqali mahsulot sifati va energiya samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Bu, o'z navbatida, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Boshqaruv va moliyaviy tizimlarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Korxonalarda strategik boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va xarajatlarni optimallashtirish tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish tannaxrini pasaytirish va mahsulotni xalqaro talablar darajasida bozorga chiqarish imkoniyatlari kengayadi.

Logistika va infratuzilmani rivojlantirish eksport salohiyatini kuchaytiradi. Mahsulotlarni yetkazib berish tizimini takomillashtirish, ayniqsa eksport yo'nalishida transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro bozorlarga tez va sifatli kirish imkoniyati yaratiladi.

Kadrlar salohiyatini oshirish – innovatsion rivojlanish garovi. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish orqali sohada raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish darajasini oshirish mumkin. Bu esa korxonalarni texnologik jihatdan raqobatbardosh qiladi.

Eksport salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun tizimli yondashuv zarur. Mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, xalqaro sertifikatlash tizimini kuchaytirish, sifat nazoratini qat'iylashtirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish strategiyasini ishlab chiqish orqali qurilish materiallari sanoatining tashqi bozorlardagi ulushini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Olib borilgan tadqiqotlar doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar real imkoniyatlar va mamlakatdagi iqtisodiy siyosatga tayangan holda quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- institutsonal islohotlar – korxonalarni samarali boshqarish, xo'jalik yuritish subyektlari o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish, klasterlar va logistika markazlari faoliyatini tashkil etish.

- investitsiya muhitini yaxshilash – xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat kafolati asosida loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

- innovatsion yechimlarni joriy etish – ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda yangi texnologiyalar, energiya tejamkor uskunalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini amaliyotga joriy etish.

- eksport strategiyasini qayta ko'rib chiqish – sifat sertifikatlash tizimini takomillashtirish, mahsulot turlarini ko'paytirish va tashqi bozorlarda O'zbekiston brendini ilgari surish.

- kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish – soha uchun maxsus ta'lim dasturlari, dual ta'lim modellari, mutaxassislarni qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi emas, balki butun iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi omildir. Bu sohadagi ilmiy asoslangan va amaliy yechimlar rivojlanishning yangi bosqichiga chiqish uchun poydevor vazifasini bajaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.05.2019-yildagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335-son qarori. <https://lex.uz/docs/4351738>
2. Курбонов А. (2020). Иқтисодий ислохотлар шароитида корхона фаолиятини ташкил этиш. Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти.
3. Юнусхўжаев Ш. (2019). Бизнес режалаштириш ва стратегик бошқарув. Тошкент: "Фан ва технологиялар".
4. Абдурасулов М. (2021). "Қурилиш материаллари бозорида рақобат муҳити". Иқтисодиёт журналі, №3, 45-50-бетлар.
5. Yordanov, T. (2020). Construction Materials and Industrial Policy. Sofia: Bulgarian Economic Review.
6. Абдурасулов Ҳ. (2021). Ишлаб чиқаришда инновация ва модернизация жараёнлари. Тошкент: Илмий амалий иқтисодиёт маркази.
7. Сатторов Қ. (2020). "Корхоналарда ресурслардан самарали фойдаланиш ва ҳўжалик механизмлари". Иқтисодий тадқиқотлар журналі, №4, 52–59-бетлар.
8. Richardson, L. (2019). Emerging Economies and Building Materials Industry. New York: Global Development Press.
9. Тожибоев Р. (2022). "Ўзбекистонда саноат тармоқларини диверсификация қилишда қурилиш материаллари ишлаб чиқаришининг ўрни". Инновацион тараққиёт журналі, №2, 33–40-бетлар.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>